KORRUPSIYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY MUNOSOBATLARGA TA'SIRI

Qahramonova Zebiniso

O'zMU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish medodikasi

(ma'naviyat asoslari) II kurs magistr talabasi

Annotatsiya: Korrupsiya murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa hisoblanib, uning mazmunini to'liq ifoda etuvchi yagona ta'rif mavjud emas. Eng ko'p tan olingan ta'riflardan biri, korrupsiya (lotincha corruptio — buzilish, aynish, pora evaziga sotilish) mansabdor shaxs tomonidan o'z lavozimiga muvofiq berilgan vakolat va huquqlarni shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda suiiste'mol qilish jarayonini anglatadi. Transparency International, Jahon banki va boshqa tashkilotlar korrupsiyani hukmronlik qilishni shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilish deb tushunadilar.

Kalit so'zlari: Korrupsiya, Transparency International, Rossiya, "o'zlashtirish", "buzilish", "parokanda bo'lish", XXIV asr, "Artxashastra", Shvetsiya, Singapur, Yangi Zelandiya va Shveysariya.

Абстрактный: Коррупция — это сложное и многогранное социальное явление, и нет единого определения, которое бы в полной мере отражало её содержание. Одно из наиболее распространённых определений гласит, что коррупция (от латинского corruptio — коррупция, порча, продажа за взятку) — это процесс незаконного злоупотребления властью и правами должностным лицом в соответствии со своим положением ради личной выгоды, с целью получения материальной или нематериальной выгоды. Transparency International, Всемирный банк и другие организации понимают коррупцию как злоупотребление властью ради личной выгоды.

Ключевые слова: Коррупция, Transparency International, Россия, «хищение», «коррупция», «дезорганизация», 24 век, «Арташастра», Швеция, Сингапур, Новая Зеландия и Швейцария.

Annotation: Corruption is a complex and multifaceted social phenomenon, and there is no single definition that fully expresses its content. One of the most widely accepted definitions is that corruption (from the Latin corruptio - corruption, spoiling, sale for a bribe) is the process of illegal abuse of authority and rights by an official in accordance with his position for personal gain, for the purpose of obtaining material or non-material benefit. Transparency International, the World Bank and other organizations understand corruption as the abuse of power for personal gain.

Keywords: Corruption, Transparency International, Russia, "embezzlement", "corruption", "disorganization", 24th century, "Arthashastra", Sweden, Singapore, New Zealand and Switzerland.

Hozirgi zamon jamiyatida korrupsiya faqat ayrim davlatlar doirasida emas, balki butun insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan umumjahon muammosi sifatida namoyon bolmoqda. U davlat boshqaruvi tizimi, iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy hayot barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishiga jiddiy putur yetkazadi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqaro hamjamiyatning ustuvor vazifalari qatoriga kirib, jahon siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Mazkur illat jamiyatning turli sohalariga chuqur singib ketib, uning izchil rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan xavfli ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Korrupsiya demokratik qadriyatlar va

qonun ustuvorligi prinsiplarini zaiflashtirib, fuqarolar huquqlarining buzilishiga olib keladi va erkin bozor munosabatlarining samarali ishlashini cheklaydi. Natijada, bu holat aholining yashash sifatini pasayishiga sabab bo'ladi. Uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa xavfli ijtimoiy illatlarning shakllanishi hamda avj olishi uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi.

Korrupsiya murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa hisoblanib, uning mazmunini to'lliq ifoda etuvchi yagona ta'rif mavjud emas.

Uning eng ko'p tan olingan ta'rifi quyidagicha, korrupsiya (lotincha corruptio — buzilish, aynish, pora evaziga sotilish) mansabdor shaxs tomonidan o'z lavozimiga muvofiq berilgan vakolat va huquqlarni shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda suiiste'mol qilish jarayonini anglatadi.[1] Transparency International, Jahon banki va boshqa tashkilotlar korrupsiya deganda hukmronlik qilishni shaxsiy manfaat yo'lida suiste'mol qilishni tushunadilar.[2] Shuningdek, mansabdor shaxslarni pora yoki boshqa manfaatlar orqali sotib olish, ularning o'z xizmat mavqeidan g'arazli maqsadlarda foydalanishi ham korrupsiyaning asosiy ko'rinishlari sifatida e'tirof etiladi. Mansabdor shaxslarnining sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi.[3] Aniqroq tushuntirish beradigan (hukumat ishonib topshirilgan resurslarni o'z ichiga olishi, bu davlat va xususiy sektor bilan bog'liq bo'lishi va hokazo) yoki yanada qat'iyroq yuridik ifodalardan foydalanadigan boshqa ta'riflar ham mavjud.[4]

Rossiyada chop etilgan bir yuridik ensiklopediyada "korrupsiya" atamasi "mansabdor shaxslarning o'zlariga berilgan huquq va hokimyat vakolatlaridan shasiy boyish maqsadida foydalanishlaridan iborat bo'lgan siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat " sifatida ta'riflangan.[5]

Lotincha "corruptio" so'zi "buzilish", "parokanda bo'lish" yoki "yo'qolish" degan ma'noni anglatadi. Ushbu atama dastlab, biror narsaning asl holatidan og'ishishini yoki buzilishini ifodalash uchun ishlatilgan. Korrupsiya esa, aynan shu ma'noda, davlat yoki tashkilot ichidagi muayyan shaxslarning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishlari, shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishlari natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni anglatadi.

Korrupsiya – bu ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazuvchi kuch bo'lib, uning natijasida milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy tengsizlik yanada chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchi pasayadi, uyushgan jinoyatchilik esa kuchayadi. Natijada, jamiyatda ma'naviyatning pasayishi va boshqa noxush hodisalar yuzaga keladi. Korrupsiya o'zining buzg'unchilik tabiati bilan insoniyat tomonidan qadim zamonlardan buyon kurash olib borilayotgan muammo bo'lib kelmoqda.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin taassufki, barcha sa'y-harakatlar zoye ketgan. Keyingi zamonlarda ham korrupsiyaga qarshi qancha-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular besamar yakun topdi.[6]

Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo'llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan "Artxashastra yoxud Siyosat ilmi" kitobi davlatni boshqarish va xo'jalik yuritish mavzuiga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari, deb qarash ham mumkin. Kitob muallifi sifatida brahman Kautile nomi (u Chanakya

[1] Akramov A., B.Sh.Alimov, M.N.Aminov va boshq. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"- Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
[2] The Anti-Corruption Plain Language Guide
[3] Akramov A., Alimov B.SH., Aminov M.N. boshq. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"-T: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
[4] Chinhamo O.,Shumba G., "Institutional working definition of corruption" ACT Southern Africa Working Paper.2007. No. 1
[5] "Yuridik ensiklopediya. 2-nashri, qayta ko'rib chiqilgan. — Moskva: BEC nashriyoti, 2003.
[6]Johnston M., Syndromes of Corruption, 24-26 b.

ismi bilan ham mashhur) zikr etiladi. “Artxashastra”ning 26-bo’limi korrupsiyaga bag’ishlangan. Bo’limda korrupsiya “o’zlashtirish” iborasi orqali izohlanadi: “Shohning shaxsiy yoki boshqa mulklariga qo’l cho’zish o’zlashtirishdir.[7] Bu holatda narxi yuqori bo’lgan buyumlarni o’zlashtirganlik uchun o’lim jazosini qo’llash, narxi o’rtacha bo’lgan buyumlarni o’zlashtirganlik uchun ularni undirib olish, narxi past bo’lgan mulklarni o’zlashtirganlik uchun ularni qaytarib olish jazolarini tayinlamoq lozim”. “Artxashastra”da poraxo’rlikning qirqta turi tasnif etiladi. Korrupsiyaning oldini olishga javobgar mansabdor shaxs vaqti-vaqti bilan xalq to’planadigan joylar va bozorlarda quyidagicha murojaat qilib turishi lozimligi aytiladi: “Biron bir boshliqdan zarar ko’rganlar bo’lsa, shu haqda bizga xabar bersinlar”.[8]

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko’p. Ulardan biri Payg’ambarimizning mana bu qarg’ishlaridir: “Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohning la’nati bo’lsin!”. Yana ul zot aytadilar: “Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la’natlasin!”.[9]

Qadimgi Rim qonunlarida “corrumpere” atamasi “sudda ko’rsatmalarni pulga sotib olish” va “sudyani pora berib sotib olish” ma’nosida foydalana boshlagan: “Nahotki sen sudda so’zlashda ishlarni tekshirish uchun tayinlangan va bu ishbo’yicha pora olgan sudya yoki vositachiini o’lim jazosi bilan jazolaydigan qonunni shafqatsiz deb hisoblaysiz? ”[10]

Qadimgi Misr fir’avnlari ham o’z davrida erkin dehqonlar, hunarmandlar va harbiy a’yonlarga nisbatan o’zbekchilik va zo’ravonlikka duch kelishgan. Ularning hukmronligi davrida qonunbuzarliklar keng tarqalgan bo’lib, bu holat amaldorlar tomonidan o’z manfaatlariga xizmat qiladigan byurokratik apparatni shakllantirishga olib kelgan. Bizga yetib kelgan Itahotel ismli shaxs o’z pand-nasihatlarida shuni tavsiya qiladi: “Boshliq oldida belingni bukib ta’zim qil, shunda sening uyingda tartib bo’ladi, sening maoshing joyida bo’ladi, kim boshliqka qarshilik ko’rsatsa, uning hayoti oson kechmaydi, lekin u iltifot ko’rsatganda esa yashash ham oson bo’ladi.”[11]

Qadimgi davlatlarda, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo’rligi jiddiy tashvish manbai bo’lgan. Bu holat davlat obro’siga katta zarar yetkazishi mumkin. Dunyoning yetakchi dinlarida ham huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo’rligi qattiq tanqid qilinadi. Misol uchun, Injilda: “Sovg’alarni qabul qilma, chunki sovga ko’rni ko’radi va haqiqatni o’zgartiradi” deb aytiladi. Quron Karimda esa: “Boshqalarning mulkini nohaq yo’l bilan olmang va boshqalarga tegishli bo’lgan narsalarni olish uchun o’z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmanglar” deb ta’kidlanadi. Bu iqtiboslar, albatta, adolat va to’g’rilik prinsiplariga e’tibor qaratadi va poraxo’rlikning salbiy oqibatlarini ochib beradi.

“Bir-birlaringizning mollaringizni batil yo’l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang” (Baqara surasi, 188-oyat) deyiladi.

Usmoniylar xalifaligida poraxo’rlik va korrupsiya masalalari, albatta, muhim tarixiy va ijtimoiy hodisalardan biridir. Dastlab, xalifa o’zining shaxsiy nazorati ostida davlat ishlarini olib borgan bo’lsa-da, vaqt o’tishi bilan bu vazifalarni o’ziga yaqin bo’lgan vazirlarga topshira boshladi. Bu esa davlat apparatining kengayishiga va vazirlar o’rtasida raqobatning kuchayishiga olib keldi.

Usmoniylar imperiyasida ma’muriy korrupsiya va harbiy-iqtisodiy inqiroz

Korrupsiya va davlat boshqaruvidagi qing’irliklar keyingi davr Usmoniylar imperiyasi uchun ham xos bo’lgan xususiyatga aylandi. XVII-XVIII asrlarga kelib, soliq tizimidagi

[7] Kautilya. Artashastra R., Shamasastry tarjimasi,1915-yil,1-5-betlar
[8] Kautilya (Chanakya). “Artxashastra yoxud Siyosat ilmi”, 2,5 ming yil avval yozilgan.
[9] Ibn Moja, M. (n.d.). “Sunan Ibn Moja”. Hadis 2330.
[10] https://ancientrome.ru
[11] Tomsinov V.A, -M.: Zertsalo tuzuvchiligida., “Xorijiy davlat va huquq tarixi: Qadimgi dunyo va O‘rta asrlar”, 1999; 2004. — 56 -b

suiiste'molliklar va sipohiylarning harbiy majburiyatlarini bajarmaslik holatlari kuchaydi. Harbiy xizmatchilar (sipohilar) o'zlariga ajratilgan yer (timar)lardan olinadigan daromadlarni shaxsiy mulk sifatida tasarruf eta boshlab, markaziy hokimiyatga harbiy yurishlarda qatnashishdan bosh tortdilar.

Qayd etilgan suiiste'mol holatlarini bartaraf etish uchun shayxulislomlar tomonidan maxsus fatvolar chiqarilgan bo'lsa-da, ular amaliy natija bermadi. Davlat apparati, xususan vazirlar, harbiy tabaqa bilan to'qnashuvdan xavfsirab, korrupsiyaga ko'z yumishga majbur bo'ldilar. Ushbu jarayon harbiy tayyorgarlikning pasayishiga olib kelib, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridagi harbiy mag'lubiyatlarning va imperiya barqarorligiga putur yetkazgan tizimli inqirozning bosh sababchisi bo'ldi.[12]

Qadimgi Rim qonunlarida "corrumpere" atamasi "sudda ko'rsatmalarni pulga sotib olish" va "sudiyani pora berib sotib olish" ma'nosida ishlatila boshlagan: "Nahotki sen sudda so'zlashda ishlarni tekshirish uchun tayinlangan va bu ish bo'yicha pora olgan sudya yoki vositachini o'lim jazosi bilan jazolaydigan qonunni shafqatsiz deb hisoblaysiz?"[13]

Alisher Navoiyning zamondoshi, podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Axloqi muhsiniy" asarida shohzodaga nasihat tariqasida quyidagi pandni bergan edi: "Ummollardan (ish yurituvchi amaldorlar) pora olishdan ehtiyot bo'lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo'lsa, pora olishga ruxsat bergan bo'ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Va pora olgan pora bergandan yomonroq bo'ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo'ladi".[14] Kobilov. Sh.R ham o'zining izlanishlarida korrupsiyaning asosiy sabablaridan biri «...iqtisodiyotda bozor munosabatlarining nomukammalligi, qonunchilikdagi muammolar, fuqarolarning axloqiy pozitsiyalarini ifodalashdagi kamchiliklar» ekanligini ko'rsatadi.

XX asrga kelib, Shvetsiya, Singapur, Yangi Zelandiya va Shveysariya kabi davlatlar korrupsiyani jilovlashda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ushbu mamlakatlarning tajribasi xalqaro hamjamiyat uchun korrupsiyaga qarshi kurashda namuna hisoblanadi.

Zamonaviy tushunchaga ko'ra, korrupsiya – mansab vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yo'lida suiiste'mol qilish sifatida ta'riflanadi. Ilmiy adabiyotlarda korrupsiyaning yuzaga kelishini to'rtta asosiy omil bilan izohlash odatiy hol hisoblanadi:

Subyektiv (shaxsiy) omillar: Korrupsiya mansabdor shaxsning axloqiy me'yorlarga amal qilmasligi, tarbiyasizligi va moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan nokasona intilishi bilan izohlanadi.

Institutsional omillar: Boshqaruv tizimining sustligi, kadrlar siyosatining samarasizligi, nazorat mexanizmlarining bo'shligi va mansabdor shaxslarning ish faoliyatidagi barqarorlikning yo'qligi (ishdan bo'shash xavfi) korrupsion muhitni shakllantiradi.

Tizimli (strukturali) omillar: Ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi, byurokratik to'siqlar va davlat xizmatlarini ko'rsatishdagi uzoq muddatlar fuqarolarni masalalarni «tezkor» va norasmiy yo'llar bilan hal etishga (pora berishga) majbur qiladi.

Kompleks (ko'p tomonlama) omillar: Davlat boshqaruvida shaxsiy omillarning ustuvorligi va rahbariyatning boshqaruv uslubi bilan bog'liq bo'lib, bunda institutsional va tizimli muammolar birgalikda korrupsiyaning kengayishiga olib keladi.[15]

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozir dunyoda har yili 1 trillion AQSh dollari hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion dollar mablag'dan ayriladi, bu

---

[12] https://tarix.sinaps.uz

[13] Таблица IX. 3. Авл. Гелий / Законм XII таблиц. Хрестоматия по истории государства и права зарубежнмх стран / под ред. В. А. Томсинова. — М.: Зерцало, 1999. С. 120.

[14] Husayn Voiz Koshifiy. "Axloqi muhsiniy".T, 1994-yil, 112-113-betlar.

[15]Kobilov. Sh.R. Milliy xavfsizlikning iktisodiy muammolari: Monografiya. — T., 2006; Korrupsiya: kelib chikish sabablari va unga qarshi kurashning jaxon tajribasi. — T., 2011.

jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizidir.[16] BMT Bosh kotibining bildirishicha, “Korrupsiya odamlarni maktab, kasalxonalardan mahrum qiladi, investorlarni vahimaga soladi, tabiiy resurslar talon-taroj bo’lishiga sabab bo’ladi, boshqa turli jinoyatlar paydo bo’lishiga shart-sharoit yaratadi.

Transparency International tashkiloti har yili 180 mamlakatda korrupsiya darajasini 0 (juda yuqori) dan 100 (juda past) ballgacha baholaydi. 2018-yilgi hisobotga ko’ra, Daniya va Yangi Zelandiya eng toza, Somali, Suriya va Janubiy Sudan esa eng korrupsiyalashgan davlatlar (10-13 ball) hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar qonunchiligida taqiqlar bilan birga, mansabdorlarning halolligini tekshirish uchun maxsus “korrupsiyaviy bardoshlilikni tekshirish” (integrity testing) usullari qo’llaniladi. Transparency International, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar korrupsiyani ishonib topshirilgan vakolat yoki resurslardan shaxsiy manfaat yo’lida suiiste’mol qilish deb ta’riflaydi.[17] Shuningdek hozirda jaxon miqiyosida Transparensy International tashkilotining “Korrupsiya”ga bergan ta’rifi ko’plab davlatlar tomonidan umume’tirof etilgan. Unga ko’ra: Korrupsiya-shaxsiy naf ko’rish maqsadidia ishonib topshirilgan vakolatlarni suiiste’mol qilish tushiniladi.[18] Bu yondashuv korrupsiyani nafaqat moddiy foyda olish, balki mansab vakolatlarini noqonuniy tarzda ishlatib, nomoddiy manfaatlarga erishish bilan ham bog’laydi. Shu bilan birga, ba’zi manbalarda korrupsiyaga nisbatan yanada aniqroq va qat’iy huquqiy ta’riflar berilgan bo’lib, unda davlat resurslari va davlat-xususiy sektor o’rtasidagi munosabatlar doirasidagi noqonuniy harakatlar ham e’tiborga olinadi.

O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi 2017-yil 3-yanvar kuni qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonun bilan ta’minlandi. Ushbu Qonun korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish va davlat hamda jamiyat manfaatlarini himoya qilishni asosiy maqsad qilib qo’yadi.

Qonunning 3-moddasida korrupsiyaga oid asosiy tushunchalar belgilangan. Unda korrupsiya shaxsning mansab yoki xizmat mavqeidan foydalanib, shaxsiy yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko’zlab, qonunga xilof ravishda moddiy yoki nomoddiy naf olish, shuningdek bunday nafni noqonuniy tarzda taklif etish yoki taqdim etish deb tushuntiriladi.[19]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov A., B.Sh.Alimov, M.N.Aminov va boshq. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”-Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
2. The Anti-Corruption Plain Language Guide
3. Akramov A., Alimov B.SH., Aminov M.N. boshq. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”-T: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
4. Chinhamo O.,Shumba G., “Institutional working definition of corruption” ACT Southern Africa Working Paper.2007. No. 1
5. “Yuridik ensiklopediya. 2-nashri, qayta ko'rib chiqilgan. — Moskva: BEC nashriyoti, 2003.
6. Johnston M., Syndromes of Corruption, 24-26 b.
7. Kautilya. Artashastra R., Shamasastry tarjimasi,1915-yil,1-5-betlar
8. Kautilya (Chanakya). “Artxashastra yoxud Siyosat ilmi”, 2,5 ming yil avval yozilgan.
9. Ibn Moja, M. (n.d.). “Sunan Ibn Moja”. Hadis 2330.
10. https://ancientrome.ru
11. Tomsinov V.A, -M.: Zertsalo tuzuvchiligida., “Xorijiy davlat va huquq tarixi: Qadimgi dunyo va O‘rta asrlar”, 1999; 2004. — 56 -b

[16] https://www.cambridge.org
[17] https://www.facebook.com
[18] https://www.transparency.org
[19] O‘razbayeva M., “Korrupsiya tarqqiyot kushandasi” maqolalr to’plami,Toshkent-2022

12. https://tarix.sinaps.uz
13. Таблица IX. 3. Авл. Гелий / Законм XII таблиц. Хрестоматия по истории государства и права зарубежнмх стран / под ред. В. А. Томсинова. — М.: Зерцало, 1999. С. 120.
14. Husayn Voiz Koshifiy. “Axloqi muhsiniy”.T, 1994-yil, 112-113-betlar.
15. Kobilov. Sh.R. Milliy xavfsizlikning iktisodiy muammolari: Monografiya. — T., 2006; Korrupsiya: kelib chikish sabablari va unga qarshi kurashning jaxon tajribasi. — T., 2011.
16. https://www.cambridge.org
17. https://www.facebook.com
18. https://www.transparency.org
19. O‘razbayeva M.,“Korrupsiya tarqqiyot kushandasi” maqolalr to’plami,Toshkent-2022.